



HIND DINIY-FALSAFIY QARASHLAR TIZIMIDA TENGLIK G‘OYASI: QIYOSIY TAHLIL¹

Ulfatxon Muxibova

filologiya fanlari doktori, professor
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
Email: ulfatmuhib8@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada hind diniy falsafiy qarashlari tizimidagi kastachilik tizimi asosida jamiyatda shakllangan tengsizlik va uning jamiyat a’zolariga salbiy ta’siri masalasiga munosabat bildiriladi. Ushbu tengsizlikka qarshi tenglik g‘oyalarini ishlab chiqqan, uni targ‘ib qilgan yoga, buddaviylik, jaynlar, siddx va natxlar hamda bhakti va sikxlar ta’limoti, ularning mazmun mohiyatidagi umumiylilik va farqlanish masalalari haqida mulohazalar bildiriladi.

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KALIT SO‘ZLAR

Hatxlar, bhakti, jaynlar, tenglik, kasta, sekta, ta’limot, siddxlар, faylasuflar, hindular.

Received: June 29, 2024

Accepted: August 25, 2024

Available online: November 15, 2024

ИДЕЯ РАВЕНСТВА В СИСТЕМЕ РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ ИНДИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Улфатхон Мухибова

доктор филологических наук, профессор
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

¹ Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):

Muxibova U. Hind diniy-falsafiy qarashlar tizimida tenglik g‘oyasi: qiyosiy tahlil // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

Email: ulfatmuhib8@mail.ru

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В статье рассматривается проблема неравенства, сформировавшегося в обществе на основе кастовой системы, основа которого лежит в системе религиозно-философских воззрений индуизма и его негативное влияние на членов общества. Обсуждаются учения йоги, буддизма, джайнов, сидхов и натхов, бхакти и сикхов, которые развивали и пропагандировали идеи равенства в противовес этому неравенству, а также вопросы общности и различия в их содержании.</p>	<p>Натхы, бхакти, джайны, равенство, каста, секта, теория, сидхи, философы, индусы.</p>

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Received: June 29, 2024

Accepted: August 25, 2024

Available online: November 15, 2024

THE IDEA OF EQUALITY IN THE SYSTEM OF RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF INDIA: COMPARATIVE ANALYSIS

Ulfatkhon Mukhibova

*Doctor of Philology (DsC), professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan
Email: ulfatmuhib8@mail.ru*

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>The article examines the problem of inequality in society and its negative impact on members, based on the caste system formed in ancient Indian religious and philosophical views. The teachings of yoga, Buddhism, Jains, Siddhas and Naths, Bhaktis and Sikhs, who developed and propagated the ideas of equality as opposed to this inequality, are discussed, and issues of commonality and differences in their content are also highlighted.</p>	<p>Naths, Bhakti, Jains, equality, caste, sect, theory, Sidhis, philosophers, Hindus.</p>

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Received: June 29, 2024

Accepted: August 25, 2024

Available online: November 15, 2024

KIRISH

Hindiston ko‘pmillatli va ko‘p dinli mamlakat. U o‘zining qadimiy diniy-falsafiy qarashlari, shu qarashlar bitilgan sanskrit tilidagi manbalari bilan ko‘pchilik e’tiborini o‘ziga jalg qilib keladi.

Bunday jamiyatda har qanday davrda ham milliy yoki diniy nizolar kelib chiqishi tabiiy bir xoldir. Shu ma’noda tenglik g‘oyasini targ‘ib qilish har bir davr uchun jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hinduizmning kastachilik tizimiga asoslangan hind jamiyatida tengsizlik azaldan hukm surib keladi va bundan xalq doim aziyat chekkan. Bu tengsizlikka qarshi turli davrlarda jamiyatning taraqqiyparvar a’zolari turli tarzda kurash olib borganlar. Ayrimlar amalda barchani teng ko‘rish orqali, ayrimlar kastaga qarab oila qurish rasm rusumiga qarshi chiqib, o‘z xohishiga ko‘ra oila qurish yo‘lidan borgan, ayrimlar kastachilik tizimi qonunlariga o‘zining maqolalari, omma oldidagi chiqishlari bilan kurashib kelgan. Biroq mamlakatda tengsizlik o‘ta kuchaygan davrlarda bu tengsizlikka qarshi yangi dinlar, yangi ijtimoiy harakatlar ham shakllangan va buni tarix sahifalarida yozib qoldirilgan manbalar yoki adabiy meroslar orqali kuzatib anglashimiz mumkin. Ushbu maqola orqali qadimdan kastachilikka asoslangan tengsizlik hukmron bo‘lgan jamiyatda kurashlar orqali o‘rnatilgan barchaning o‘zaro tengligini ta’minlovchi g‘oyaning hind jamiyatidagi rivojlanish bosqichlarini kuzatish mumkin, shuningdek, tenglikni ta’minalash uchun vujudga kelgan o‘ziga xos ta’limotlar, dinlar va diniy harakatlar o‘rtasidagi umumiylilik va farqlanishlar haqida so‘z yuritiladi.

Hinduizmga bo‘lgan tanqidiy munosabatlar miloddan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida shakllana boshlagan. Bu tanqidlar jamiyatdagi kastachilik tizimiga qarshi qaratilgan. Ma’lumki, kastachilik tizimida, asosan, quyi tabaqa vakillari aziyat chekadi. Hinduizm dini qoidasiga ko‘ra bir kastadan ikkinchi kastaga o‘tish mumkin emas, kim qaysi kastada tug‘ilgan bo‘lsa, shu kasta vakili sifatida umrining oxiriga qadar yashaydi. Demak, quyi tabaqada tug‘ilgan inson abadiy shu tabaqada yashab, abadiy haqoratlanish, kamsitilishga mahkum. Buni dindorlar insonning taqdiri sifatida talqin etadilar va buni o‘zgartirish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Albatta

bunday tushunchalar vaqt o‘tib inson ongi taraqqiy etib borgan sari tanqidga uchray boshlaydi va bu tanqid ortidan sekin asta turli shakldagi kurashlar kelib chiqadi va bu asta sekin ommaviy tus oladi. Albatta, har bir jamiyat taraqqiyparvar insonlarsiz bo‘lmaydi. Hind jamiyatida ham shunday insonlar paydo bo‘lib, ular oddiy xalq hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirish maqsadida birinchidan, ularning ongini o‘zgartirish lozimligini tushungan holda o‘z targ‘ibot ishlarini amalga oshirdilar. Ularning xalq hayotini yaxshilash haqidagi fikrlari sekin asta nazariya shaklida ishlab chiqildi va bu o‘z o‘zidan katta bir kuch sifatida omma o‘rtasida tarqab, jamiyatda inqilobiy o‘zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Kastachilik tizimi bilan bog‘liq qotib qolgan g‘oyalar, fikrlar targ‘iboti, aslida, yuqori tabaqa vakillarining manfaati yo‘lida chiqargan xulosalari bo‘lib, tenglikni targ‘ib qiluvchilar hech qaysi bir muqaddas kitobda ular targ‘ib qiladigan fikr yozilmagan, degan fikrni isbotlash yo‘lida kurashdilar. Shu tarzda bunday insonlar sa’yi harakati bilan jamiyatda yangi, tenglik g‘oyasini targ‘ib qiluvchi ta’limotlar, mafkuralar shakllangan. Bunday mafkuraning birinchisi miloddan avvalgi VI-V asrlarda shakllangan buddaviylik dini g‘oyalaridir.

Sidxarta Gautama asos solgan buddaviylik (boddxa dxarama - Sanskrit tilida ong, aql ma’nolarini anglatuvchi boddxa so‘zi orqali buddaviylik dinining nomi shakllangan.) barcha insonlar o‘zaro teng ekanligi haqidagi hind jamiyatida shakllangan ilk ta’limot bo‘lib, bu ta’limot o‘zining tenglik g‘oyasi bilan xalq e’tiborini qozonib, hinduizmning jamiyatdagi mavqeining pasayishiga olib kelgan.

Buddaviylik g‘oyalari har bir inson hech qanday muammosiz o‘zining ruxiy ozodligiga erishishi mumkin, buning uchun unga hech qanday ibodatxona yoki ustozning keragi yo‘q, deb hind xalqiga ruhiy ozodlik yo‘lini ko‘rsatdi, natijada bu g‘oya xalq orasida keng tarqaldi, hinduizmni jamiyatda obro‘yini pasaytirdi, bu din chetga chiqdi va yangi buddaviylik ta’limoti hind jamiyatiga kirib keldi.

Yagona bir ta’limot bo‘lgan buddaviylik milodning birinchi asrlariga kelib ikki yo‘nalishga ajraldi; birinchisi, hinayana (kichik g‘ildirak) va ikkinchisi mahayana (katta g‘ildirak) yo‘nalishlari. Bu ikki yo‘nalishlar bir biridan nimasi bilan farqlangan. Masalan, hinayana maktabi «nirvana», ya’ni «ruhiy ozodlik»ka har bir inson erisha olmaydi, unga erishish uchun inson, albatta, ma’lum bir ilmlarga ega

bo‘lishi, jamiyatning ilmli qatlaming vakili bo‘lishi lozim, deb hisoblagan, ya’ni bu maktab vakillarining qarashlari yana o‘sha eski hinduizmdagi tengsizlik tomon yo‘l olgan g‘oya edi. Hinayana maktabining boshqa ta’limotlari ham taraqqiyat parvar yo‘ldan bormagan, jumladan, inson bilimi nisbiy va o‘zgaruvchan, moddiy olam, shuningdek, ong ham real emas, borliq esa faqat *shunya*, ya’ni bo‘shliqdan iborat, degan g‘oyalarni targ‘ib qilgan.

Mahayana maktabi esa, aksincha, hinayana yo‘nalishi ta’limotlarini tanqid qilish yo‘lida shakllangan ikkinchi maktabdir. Ularning ta’limotiga ko‘ra har bir inson «ruhiy ozodlik»ka erishishi mumkin, uning savodi bor yoki yo‘qligining hech qanday ahamiyati yo‘q. Bu ongni o‘zgartirish bilan, aqlni rasolash bilan bog‘liq jarayon, deb targ‘ib qilganlar. Shu bois ularning tarafdarlari ham ko‘pchilikni tashkil etgan. Hatto, brahmanlar orasida ham buddaviylikni qabul qilganlar bo‘lgan. Jumladan, sanskrit adabiyotining taniqli namoyandasasi, dramaturg va yozuvchi Ashvaghosha (VII asr) braxma oilasidan chiqqan, biroq u o‘z dinidan voz kechib, buddizmni qabul qilgan. Adabiy jarayonda sanskrit adabiyotiga buddizm g‘oyalarni olib kirgan ilk adib hisoblanadi.

Demak, buddizm hind jamiyatida ilk bor tenglik g‘oyasini targ‘ib qilgan va bu yo‘lda o‘z maqsadlariga erishgan, o‘zining ko‘plab tarafdarlariga ega bo‘lgan ta’limotdir. Albatta, vaqt o‘tib buddizm tarafdarlari Hindiston tashqarisida ham ko‘payib bugungi kunda u Xitoy, Yaponiya, Koreya, Tailand, Birma, Sikkim, Kombodja va uzoq sharq mintaqasining boshqa mamlakatlarida ham yetakchi din hisoblanadi.

Ayni shu davrda, ya’ni miloddan avvalgi VI asrlarda Hindistonning boshqa bir hududida yana bir ta’limot shakllandi, bugungi kunda bu ta’limot jaynlar dini sifatida o‘zining ko‘pgina tarafdarlariga ega. Uning asoschisi ustoz Maxavir bo‘lib, u ham o‘ziga xos tenglikni targ‘ib qiluvchi g‘oyalarni ilgari surgan. Jaynlar ta’limoti ham hind jamiyatiga shu davr uchun dolzarb bo‘lgan ko‘pgina yangi ta’limotlar bilan kirib kelgan.

Ularning tenglik ta’limoti buddaviylikdagi tenglik g‘oyasidan ham ilgarilab ketgan va unga ko‘ra faqat insonlar emas, balki olamda mavjud jamiki jonzotlar

Yaratgan oldida tengdir, degan g‘oyani ilgari surganlar. Jaynlarning bu g‘oyasi «ahinsa» (Guseva N.R., 1963, 67) (yoki “ahimsa”), ya’ni jonzotlarga ozor yetkazmaslik ta’limotida o‘z aksini topgan. Bu nazariyaga ko‘ra olamda ikki kategoriya jiva (jonzot) va ajiva (moddiy olam) kategoriyalari obyektiv ravishda mavjud bo‘lib, ular doimiy ravishda o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. (Guseva N.R., 1963, 66). Bu ta’limotga ko‘ra har bir inson moddiy olam bilan bog‘liqlikdan ozod bo‘lib, ruhiy komillikka erishish uchun intilishi lozim. Shundagina u to‘rt oliy xususiyatga (yoki sifatga) ega bo‘la oladi: cheksiz e’tiqod, cheksiz bilim, cheksiz kuch- qudrat va cheksiz baxt. Inson tanasini ruh boshqarishi lozim, chunki ruh tanaga bog‘liqlikdan ozod bo‘lganidan keyingina ruxiy ozodlikka erishadi. Aynan, shu ta’limotda jaynizm g‘oyalarining buddizm bilan o‘xshashligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, jaynlarning qonunlar majmuasi bo‘lgan «Sidxatta» va «Kalpasutra» nomli kitoblarida esa astronomiya, geografiya, kosmogoniya, xronologiya, haykaltaroshlik, musiqa va raqs san’ati (Hind jamiyatni diniy qarashlarida raqs Haqqa yetishishning alohida bir vositasi sifatida tushuniladi va bu yo‘lning o‘z qonun-qoidalari, usullari mavjud bo‘lib, ular haqida diniy kitoblarda ma’lumotlar berilgan) bilan bog‘liq nazariy va amaliy xarakterdagi yangi ma’lumotlar to‘plangan. Jaynlar dini hinduizmning ayrim qarashlariga ham qarshi chiqadi, jumladan, «Sidxatta» kitobida brahmanlar tanqid qilinadi, vedalarning muqaddasligi inkor etiladi, hindularda ayollar uchun man qilingan rohib bo‘lish va ilohiy kitoblarni o‘qish huquqi beriladi. Shu tarzda jaynlar dini ham hinduizm tanqidi yo‘lida shakllangan va o‘zining tenglik g‘oyasi orqali xalq e’tiborini qozongan bir ta’limotdir.

Buddaviy va jaynlardan keyin tenglik ta’limotiga alohida e’tibor qaratgan xalq jamoalaridan biri bu sidxlar jamoasi bo‘lgan. Bu jamoalarning asoschisi bo‘lmagan va ularni doim xalq vakillari boshqargan. Hind jamiyatida bu jamoalarning ahamiyati shundan iboratki, ular dinlarning jamiyatda mavqeい pasayib borayotgan bir davrda odamlar uchun ilm va ibodat maskani hamda e’tiqodni saqlab qolish vositasi sifatida xizmat qilgan va, asosan, jamiyatda mafkuraviy o‘zgarishlar, o‘tishlar davrida ularning faoliyati kuchaygan. Xalq vakillari boshqaradigan bu diniy tashkilotlarda ham tenglik g‘oyasi alohida ahamiyat kasb etgan. Sidx sektasi xalq bilan yaqinligi va

ularda tenglik g‘oyalariga qat’iy amal qilinishi bilan ajralib turgan.

XII–XIII asrlarda o‘zining yoga ilmi bilan omma orasida keng tarqalgan ta’limot bu natxlar jamoasi ta’limoti bo‘lib, unga shu davr faylasuflaridan biri Gorakxnatz asos solgan. Natxlar hind jamiyatiga tenglik hamda ruh va tana pokligi mutanosibligini ta’minlovchi yoga ilmini olib kirgan. Natxlar jamoasi ham dinning mavqeい susayib, intilish va ishonish mumkin bo‘lgan yangi g‘oyalar va qarashlar hali shakllanmagan bir davrda hind jamiyatiga kirib kelgan. Uning yoga ta’limoti ma’naviy va ruxiy barkamollikda barchani tengligini ta’milagan. Unga ko‘ra inson dini, kastasi, millati va jinsidan qat’iy nazar ruh va tana pokligini ta’minlab, ruxiy barkamollikka erishishi mumkin. Albatta, ruxiy barkamollikka erishishni istagan xalq vakillari bu ta’limotni ijobiy qabul qilgan. Parashuram Chaturvedi yoga ilmi juda qadimiy ta’limotlardan bo‘lib, u vedalar davrida ham mavjud bo‘lganligi haqidagi fikrni bildirgan. Ramdxari Sinx Dinkarning aytishicha, Moxenjodaro va Xarappa qazilmalari orasidan yoga an’analariga oid manbalar ham topilgan. Agar yoga vedalar davrida shakllangan bo‘lsa, u holda hind jamiyatiga tenglik nazariyasini olib kirgan birinchi ta’limot bu yoga ta’limotidir, deyish mumkin. Bu ta’limot o‘z nazariyasini amalda tasdiqlab yoga maktablariga har bir istagan shaxsning kira olish huquqini bergen, albatta, bunday yondashuv yoganing ommalashuviga asosiy sabab bo‘lgan. Natijada yoga maktablarida hindu ham, faqir musulmon ham, hatto, quyi tabaqa vakillaridan kori (hindular tikuvchisi), julaha (musulmonlar tikuvchisi) kabi past tabaqa vakillari ham shug‘ullangan.

Natxlar jamoasi ham, o‘z navbatida, hinduizmning ayrim nazariyalarini tanqid qilgan, jumladan, qayta tug‘ilish ta’limotini inkor qilgan va jamiyatga “ustoz va shogird” munosabatlari tizimini olib kirgan. Gorakxnatz ustoz va shogird munosabatlarining qat’iy qoidasini ishlab chiqqan va bunga barcha rioya qilgan. Shuningdek, insonning ruxiy takomillashuvi yo‘lida hech kim va hech narsa to‘siq bo‘la olmaydi, degan g‘oya natxlarning tenglik ta’limotining asosi edi.

O‘rta asrlarda hind jamiyatida eng keng tarqalgan harakat bu bhakti diniy islohotchilik harakatidir. O‘rta asrlarga kelib hinduizmning kastachilik tizimi yana avj oladi va oddiy xalq bundan aziyat cheka boshlaydi. Natijada xalq o‘rtasida

Yaratganga, dinga bo‘lgan ishonch, e’tiqod pasayib ketadi. Buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shu davr taraqqiyatparvar insonlari, ya’ni faylasuflar dinni isloh qilishga kirishadilar. Ular hinduizmning mutaassibligiga qarshi, kastachilik tizimining noto‘g‘ri targ‘ibotiga qarshi Yaratgan oldida barcha tengdir, Yaratganga mehrli va sadoqatli bo‘lish shiori ostida o‘z faoliyatlarini boshlaydilar va bu yo‘lda juda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Qisqa vaqt ichida oddiy xalq din peshvolari emas xalq tomonida bo‘lgan faylasuflar ketidan borib jamiyatda bhakti harakati va shu asosda tarixda “xalq adabiyoti” nomi bilan qolgan bhakti adabiyoti shakllanishiga sababchi bo‘ladilar. Bu Hindiston tarixida juda katta bir davrni, uch yuz yildan ortiq davrni o‘z ichiga olgan xalq demokratik harakati bo‘lib, o‘zining insonparvar, xalqparvar g‘oyalari bilan o‘rta asrning yetakchi mafkurasi bo‘lgan. Bhaktining inson qaysi din, qaysi kasta, qaysi millat vakili va qaysi hududda yashashidan qat’iy nazar Yaratgan oldida va o‘zaro tengdir, degan g‘oyasi xalq hayotini tubdan yaxshi tomonga o‘zgartirgan. Bu davr Hindistonda ayni Boburiylar sulolasи hukmronlik qilgan davr bo‘lib, Boburiy shohlar uchun ham sultanatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minalash, mamlakatni rivojlantirish, xalqni birlashtirish uchun suv va havodek zarur mafkura bo‘lganligi bois ular ham bhakti harakatini qo‘llab quvvatlab, uni targ‘ib qiluvchilarga barcha shart sharoitlarni yaratib bergenlar, natijada Hindistonda Boburiylardan Akbarshoh davri bilan bog‘liq “Oltin davr” deb nomlanadigan bir davr tarixda qolgan.

Ayni bhakti harakati keng tarqalgan bir davrda ayni shu hududda XVI asrda hind jamiyati diniy-falsafiy qarashlar tizimiga yangi bir ta’limot, yangi din kirib keladi. Bu Guru Nanak (ustoz Nanak) asos solgan sikxlar dinidir. Bu dinning kelib chiqish asosini musulmonlarga taqab, hind mutaxassislari Hindistonga musulmonlar kirib kelganidan keyin hindular diniga talafot yetkazilgani sabab yangi din vujudga kelgan, deydilar (Semyonova N.I., 1963). Bu davr Hindistonda boburiylardan shoh Avrangzeb hukmronligi davri bo‘lgan. Aynan u o‘z sultanatida islam dinini kuchaytirib hindularni siqishni boshlagan, natijada hinduizm himoyaga muhtoj bo‘lib qolgan. Guru Nanak jamiyatda hinduizmning mavqeini ko‘tarish maqsadida hindular dinining ayrim ta’limotlarini qayta ishlab chiqib, unga davr talabiga mos

nazariyalarni kiritib, yangi bir ta'limotni yaratgan va mana shu ta'limot sikxlar dini nomi bilan yuritila boshlangan. Nanakdan keyin bu ta'limotni uning to'qqiz nafar shogirdi davom ettirgan. Shu asosda sikxlar dinida jami o'nta ustoz ta'limoti rasman tan olinadi. Sikxlarda ustoz shogird tizimining qat'iyligi bu ta'limotni natxlar ta'limoti va bhakti ta'limoti bilan yaqinlashtiradi. Ustoz Nanak va undan keyingi barcha ustozlarning o'gitlari har bir shogird tomonidan "Gurugrantx" ("Ustoz o'gitlari") nomli kitobga jamlangan. Bu kitoblar sikxlarning muqaddas kitobi sanaladi. Bugungi kunda sikxlar dini Hindistonning Panjob shtatida yashovchi panjob xalqi e'tiqod qiladigan dindir.

Bhakti, sikxlar va natxlar ta'limoti o'zining tenglik, ustozga mehrli bo'lish va ustoz o'gitlarini sadoqat bilan bajarish jihatdan bir-biriga yaqin ta'limotlardir, deyish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qadimiy Hindistonda shakllangan hinduizm diniga qarashli bo'lган jamiyatni ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan guruhlarga, ya'ni varnalarga ajratilish qoidasi keyinchalik kastachilik tizimining shakllanishiga asos bo'lган. Ushbu tizim, o'z navbatida, yuqori va past qatlam vakillarini aniqlovchi tizim bo'lib, jamiyatda tengsizlikning vujudga kelishiga asos bo'lган, natijada oddiy xalq hayotida ko'p muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lган. Ushbu tengsizlikka qarshi turli davrlarda turlicha kurashlar amalga oshirilgan va bugungi kunda bu kurashlar turli ta'limotlar nomi bilan tarixda qolgan. Yuqorida ushbu ta'limotlar haqida keltirilgan ma'lumotlar asosida, shunday xulosa qilish mumkinki, hind jamiyatidagi diniy falsafiy qarashlar tizimida jamiyatda eng ko'p ijtimoiy muammo keltirib chiqaradigan nazariya bu hinduizmning jamiyatni varnalarga, ya'ni guruhlarga ajratish nazariyasi bo'lib, unga qarshi kurash hind jamiyatida doimiy ravishda bo'lib kelgan, Bu kurashlar yoga ilmi, buddaviylar va jaynlar ta'limoti, sidx va natxlar ta'limoti, bhakti harakati va sikxlar ta'limoti tarzida tarixda nomi qolgan va ularning barchasi haqiqatan ham o'zlarining tengsizlikka qarshi g'oyalari bilan jamiyatga kirib kelib, ma'lum vaqt muvaffaqiyat qozongan. Biroq hind jamiyatidan

kastachilik tizimini hech bir ta'limot ildizi bilan yo‘q qila olmagan. Bu yo‘nalishda jamiyatda juda katta ijobjiy o‘zgarishlar qilgan va uzoq vaqt o‘zining tenglik g‘oyasini saqlay olgan ta’limot bu Boburiylar davridagi bhakti ta’limoti bo‘lgan, deyish mumkin.

Bugungi kunda ochiq bo‘lmasa-da, hind jamiyatida kastachilik tizimidan ko‘pgina oddiy xalq aziyat chekadi. Ayniqsa, hind xalqi o‘rtasida savodsizlikning hali hanuz kuchliligi bu tizimni butunlay yo‘q qilishda to‘sinq bo‘lib kelmoqda. Lekin, shunga qaramay hind jamiyatida bugungi kunda soni ortib borayotgan ziyorolar, ma’rifat vakillari o‘rtasida esa kastachilik tizimi, uning asoratlari o‘z kuchini yo‘qotgan va tengsizlik tushunchasi hech kimga zarar yetkaza olmaydi. Albatta, tezlik bilan rivojlanayotgan Hindistonda yillar o‘tib, savodsizlik tugatilgach, kastachilik tizimi o‘z o‘zidan hind jamiyatidan chiqib ketadi va bugungi gaplar bir ma’lumot sifatida tarix saxifalaridan o‘rin oladi, deb umid qilamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Guseva N.R. Djaynizm. – M.: 1968.
2. Guseva N.R. Induizm. – M.: 1977.
3. Semyonova N.I. Istorya sikkhskogo dvijeniya v Indii. – M.:1963.
4. Xodjavea T.A., Muhibova U.U. Hindiston adabiyoti. Toshkent, 2020.

Hindi tilidagi manbalar:

5. मनीशा शमाा। गोरखवानी परम्परा और कव्यता । – दिल् ली, 1998.
6. मलीक मुहम्मि । वैष्णव भदि आंडोलन । – दिल् ली, 1989.,

REFERENCES

1. Guseva N.R. (1968) Jainism. Moscow
2. Guseva N.R. (1977) Hinduism. Moscow
3. Semyonova N.I. (1963) History of Sikhism in India. Moscow
4. Khojavea T.A., Muhibova U.U. (2020) Indian literature. Tashkent.

Sources in Hindi:

5. manīśā śarmā. gōrakhavānī paramparā aura kavyatvā । - Delhi, 1998.
6. malīka muhammadā ◦ vaiṣṇava bhakti āndōlana । - Delhi, 1989.